

Yulchiyeva Dildora,
*Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti bo'limi boshlig'i,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*



OILANING IJTIMOYIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING HUQUQIY, PSIXOLOGIK, SOTSIOLOGIK, PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oila borasidagi qarashlar keltirilgan bo'lib, xususan, oila barqarorligini ta'minlashning huquqiy, pedagogik, psixologik va sotsiologik asoslarining o'rganilganlik darajasi, mamlakatimiz olimlarining qarashlari tahlilga tortilgan.

Аннотация. В этой статье представлены взгляды на семью, в частности, проанализированы уровень изученности правовых, педагогических, психологических и социологических основ обеспечения стабильности семьи, взгляды отечественных ученых.

Annotation. This article presents views on the family, particularly the level of study of the legal, pedagogical, psychological, and sociological foundations of ensuring family stability, and analyzes the views of domestic scholars.

Tayanch so'zlar: oila, barqaror ijtimoiy munosabat, qadriyat, shaxslararo munosabatlar, oilaviy munosabatlar psixologiyasi, oilaviy munosabatlar modeli, sog'lom oila.

Ключевые слова: семья, стабильные социальные отношения, ценности, межличностные отношения, психология семейных отношений, модель семейных отношений, здоровая семья.

Key words: family, stable social relationships, value, interpersonal relationships, family relationship psychology, family relationship model, healthy family.

*Professor
O.I.Oqyulovning
“Oila huquqi”
darsligida
oila va oilaviy
munosabatlarga
quyidagicha
ta’riflar berilgan.
Oila yangi
odamning
ma’naviy tug’ilishi
va tarbiyasining
beshigi.
Oiladagi ijtimoiy
munosabatlarning
turli-tumanligi,
hissiyotlarning
kutilmagan
vaziyatda vujudga
kelishi va ochiqligi,
xususan, ularning
aks etishi, farzand
tarbiyasidagi zarur
e’tibor tufayli
ta’lim-tarbiyaning
eng baxtli muhiti,
shuningdek,
shaxsning
axloqiy va
huquqiy tarbiyasi
shakllanadi.*

Kirish. Oila – kishilarning nikoh, qon-qarindoshlik, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy munosabatlar asosida tabiiy-biologik turmush birligi va o‘zaro javobgarlik orqali bog‘langan ijtimoiy guruh¹. Uning ijtimoiy, iqtisodiy, demografik kabi asosiy vazifalari bor. Dunyodagi barcha xalqlar uchun oilaning mohiyati va vazifalari bir xil ko‘rinishga ega. Biroq ma’lum bir davrdan kelib chiqqan holda shakllangan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, diniy, milliy munosabatlar insonlarning turmush tarzi, urf-odatlar, diniy e’tiqod, milliy qadriyatlar sifatida har bir oilaga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi².

Asosiy qism. Oiladagi barqaror ijtimoiy munosabat – Er va xotin ijtimoiy munosabatlarining progressiv jihatlarida, turmush sharoitidan, o‘zaro shaxslararo munosabatlardan qoniqish darajasi va ota-ona va farzand munosabatlarining ijobiy, barqaror kayfiyatda bo‘lishi bilan belgilanadi.

Professor O.I.Oqyulovning “Oila huquqi” darsligida oila va oilaviy munosabatlarga quyidagicha ta’riflar berilgan (1-rasm). Oila – yangi odamning ma’naviy tug’ilishi va tarbiyasining beshigi. Oiladagi ijtimoiy munosabatlarning turli-tumanligi, hissiyotlarning kutilmagan vaziyatda vujudga kelishi va ochiqligi, xususan, ularning aks etishi, farzand tarbiyasidagi zarur e’tibor tufayli ta’lim-tarbiyaning eng baxtli muhiti, shuningdek, shaxsning axloqiy va huquqiy tarbiyasi shakllanadi³. Aynan ilk bolalik davrida shaxsiyat oilada shakllana boshlaydi. Oilada yuzaga keladigan barcha kelishmovchiliklar asosidagi janjallar ichki nizolarni keltirib chiqaradi va oilaviy munosabatlar psixologiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladigan o‘ziga xos qonuniyatlarga ega.

Oila bu ijtimoiy pedagogikaning muhim modeli hisoblanib, ma’lum bir oilada qabul qilingan va jamiyat tomonidan isbotlangan munosabatlar yo‘nalishi bo‘lib, er-xotinlarning xatti-harakatlar turlari bo‘lib, bu oilalarning jamiyatdagi hayot tarzini ko‘rsatadi. Oilada ro‘zg‘or yuritish va farzandlarni tarbiyalash bilan bog‘liq ajralib turadigan ota-onalarning birgalkdagi olib boradigan sifatleri turli xil psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan turmush o‘rtoqlarning xatti-harakatlarining modellarini shakllantirish tushuniladi.

Ma’lumki, har qanday oila qurgan juftlik uzoq vaqt davomida birgalikda yashashi davomida o‘zining yillar davomida orttirgan malakasi asosida bir qancha tajribalarni belgilab boradi. Jumladan, bu tajribani tanlash ota-onalarning psixologik xususiyatlariga, oilada ular yaratgan ijtimoiy-pedagogik muhitning


¹ Нажмидинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлокий маданиятнинг ўрни. – Т.: “Адолат”, 2016. – 224 б.

² О‘sha manba.

³ Oila huquqi // Darslik. Mualliflar jamoasi. O.I.Oqyulovning umumiy tahriri ostida. –Т.: TDYU nashriyoti, 2016.

me'yorlari va qonun-qoidalariga bog'liq ekanligi isbotlangan. Bundan kelib chiqib, oilada er-xotinlarning bir qancha xulq-atvorlari modellarini ajratish mumkin.

Professor O.I.Oqyulov tomonidan oila va oilaviy munosabatlar modeli quyidagicha ta'sniflangan (1.1-rasm).



1-rasm. Oilaviy munosabatlar modeli (O.I.Oqyulov)

Ota-ona modeli. Ushbu modelda bitta turmush o'rtog' ikkinchisiga g'amxo'rlik, homiylik, ta'lim-tarbiya berish istagi kabi xarakterlar jamlanmasini o'z ichiga oladi, ikkinchisida esa aksincha, o'z-o'zidan paydo bo'lishi, mas'uliyatni o'z zimmlariga olish istagi yo'qligi bilan ajralib turadi. Bunday oilada turmush o'rtoqlardan biri ota-onaning vazifalarini o'z zimmasiga oladi, boshqasi esa bola rolini o'ynaydi. Umuman olganda, oilaviy munosabatlar yaxlitlik, psixologik muvofiqlik va barqarorlik bilan ajralib turadi.

Teng huquqlilik modeli. Oiladagi barqaror munosabatlarda teng huquqli modeli turmush o'rtoqlar bilan birgalikda oiladagi ijtimoiy muammolarni hal etish, bolalarni tarbiyalash va bo'sh vaqtlarini tashkil qilish kabi masalalarida ayol va erkak ikkalasi birgalikda bir hil teng huquqlidir, deb hisoblandi. Bunday oilada, masalan, ota-ona ta'tili masalasida o'zaro kelishilgan holda hal etiladi, kim ta'tilga chiqadi er yoki xotin, va er-xotin teng holda ishlaydilar va pul topadi, martaba pog'onasida ko'tariladi va hokazo.

Romantik oilaviy model. Romantik modelda oilaviy ijtimoiy munosabatlarda turmush o'rtoqlarning psixologik portreti ularni sentimental, hissiy yo'naltirilgan tabiat deb ta'riflanadi, ular uchun nikohda ma'naviy uyg'unlik va yuksak hislarni namoyishlarini topish uchun panohdir. Bu yerdagi turmush o'rtoqlar oilaviy barqaror munosabatlar yangi taassurotlar olishga, bo'sh vaqtlarini doimo birgalikda mazmunli o'tkazishga qaratilgan.

Do'stona oilaviy model. Bunday oilada turmush o'rtoqlar o'zaro qiziqish va sevimli mashg'ulotlariga asoslangan holda hayotni va oilaviy munosabatlarni o'rnatishga intilishadi. Turmush o'rtoqlar ma'suliyat bilan va adekvat hissiyotlar

Ota-ona modeli. Ushbu modelda bitta turmush o'rtog' ikkinchisiga g'amxo'rlik, homiylik, ta'lim-tarbiya berish istagi kabi xarakterlar jamlanmasini o'z ichiga oladi, ikkinchisida esa aksincha, o'z-o'zidan paydo bo'lishi, mas'uliyatni o'z zimmlariga olish istagi yo'qligi bilan ajralib turadi.

Oilaviy ijtimoiy munosabatlarning ushbu modelida er xotinlar o'z hayotlarini uy sharoitlarini yaxshilashga emas, balki bir birlaridan ma'lum masofani saqlashga, didi, hayotga qarashlari, afzalliklari va bo'sh vaqtlarini o'tkazish shakllari bo'yicha o'z avtonomiyalarini mustahkamlashga harakat qiladilar.

bilan uy ishlarini bajaradilar, bolalarni tarbiyalash bilan shug'ullanadilar. Umumiy manfaatlar va ijtimoiy doiralar nikoh munosabatlarining asosiy bog'lovchi elementi bo'ladi.

Oilaviy barqaror munosabatlarning do'stona modelida er yoki xotin ko'pincha martabaga erishishga faollik ko'rsatadi, moddiy farovonlik cho'qqilariga erishishga harakat qiladi, ikkinchi turmush o'rtog'i esa oiladagi munosabatlarda barqaror tinchlik va farovonlikni ta'minlaydi. Qanday bo'lmasin, bunday oila jamiyatimizning uyg'un shakllangan hujayrasi bo'lgan uyg'un mexanizm sifatida ishlaydi.

Avtonom oila modeli. Oilaviy ijtimoiy munosabatlarning ushbu modelida er xotinlar o'z hayotlarini uy sharoitlarini yaxshilashga emas, balki bir birlaridan ma'lum masofani saqlashga, didi, hayotga qarashlari, afzalliklari va bo'sh vaqtlarini o'tkazish shakllari bo'yicha o'z avtonomiyalarini mustahkamlashga harakat qiladilar. Avtonom oila modelida er xotin o'z bilganicha yashashga intiladi. Hozirgi paytda turmush o'rtoqlar turli shaharlarda yoki hatto mamlakatlarda ish topishlari mumkin, bu esa oilaviy munosabatlarni saqlab qolish bilan xoxlaganlarida ajrashishlari xavfi borligini anglatishi mumkin.

Oila nafaqat ruhiy – ma'naviy mikromuhit manbai bo'libgina qolmasdan, balki u o'z a'zolarini moddiy jihatdan ta'minlash bilan oila a'zolarining iqtisodiy muammolarini bartaraf etishga ko'maklashadi, har bir oila a'zosining o'z mulkiga, o'zining iqtisodiy ma'nodagi mulkiy holatga ega bo'lishiga yordam beradi. Shu ma'noda olganda, oilaning bir butunligini tashkil qiluvchi er-xotinlar ham o'zlarining xususiy, umumiy, umumiy birgalikdagi ulushli hamda shaxsiy foydalanishdagi buyumlariga ega bo'ladilar⁴.

Oila kodeksining 23-moddasiga binoan, "Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi⁵.

Professor O.I.Oqyulovning qarashicha, Oilaviy-huquqiy munosabatlarning turlari "Oila kodeksining" qaysi moddalarida ko'rsatilganligi belgilab o'tilgan (1.1-jadval)⁶.

⁴ Oila huquqi // Darslik. Mualliflar jamoasi. O.I.Oqyulovning umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU nashriyoti, 2016.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Оила Кодекси: – Тошкент: "Адолат" миллий ҳуқуқий маркази, 2021.

⁶ Oila huquqi // Darslik. Mualliflar jamoasi. O.I.Oqyulovning umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU nashriyoti, 2016.

1-jadval

Oila kodeksida oilaviy-huquqiy munosabatlar aks etgan moddalar

“Er va xotin o‘rtalaridagi o‘zaro munosabatlar	(Oila kodeksi) 18-28-m.)
Ota-ona va farzandlar orsidagi munosabatlar	(Oila kodeksining 65-95-m.)
Qarindoshlar hamda notanish insonlar o‘rtasidagi munosabatlar	(Oila kodeksining 5-m.)
Aliment undirish bo‘yicha munosabatlari	(Oila kodeksining 96-147-m.)
Ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish bo‘yicha munosabatlar	(Oila kodeksining 148-200-m.)

N.Egamberdiyevaning fikricha, “Oilaviy munosabatlar – oliy qadriyat” deb hisoblangan bizning respublikamizda oilaning ijtimoiy maqomi nihoyatda baland bo‘lib, u o‘z mavqeyini hozirgacha saqlab kelmoqda. O‘zbek oilasida kerakli bo‘lgan ta’limiy hamda tarbiyaviy malaka va ko‘nikmalar asrlar davomida avloddan avlodga etib kelmoqda. Ko‘p bolali o‘zbek oilalarida patriarxal tartibning saqlanishi oiladagi ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta’minlagan. Biroq bugungi kunimizda oila inqirozi ko‘pgina oilalar, shu jumladan, jamiyatda oilalarga ham o‘z kuchini ko‘rsatib kelmoqda. Oila a’zolari miqdorining kamayib borishi, qarindosh-urug‘larning uzoqlashuvi muammosining ko‘payishi oqibatida, oilaviy munosabatlarni shakllantirish masalasi tobora muhim ahamiyati oshib bormoqda. Oila bugungi kunda yuksak malakali psixolog, ijtimoiy pedagoglar yordamiga muxtoj bo‘lib qolgan⁷.

O.Musurmanovanning fikricha⁸, “Oila jamiyatning asosiy poydevori bo‘lib, ma’naviy madaniyatning barcha qirralari oilada tarbiyalanadi va takomillashtiriladi. Oilada ma’naviy va jismoniy sog‘lom shaxs barqaror jamiyat kelajagi, nasl salomatligini ta’minlovchi millatparvar, vatanparvar bo‘lib voyaga yetadilar”.

M.Quronovning ta’rifiga ko‘ra, “Milliy tarbiya mazmunini eng yaxshi o‘zbek oilalarida oilaviy munosabatlarda barqarorlikka mavjud bo‘lgan ta’lim-tarbiya mazmuni va bugungi kundagi davlat, jamiyat hamda maktab o‘quv maqsadlari yuzasidan bolalar tarbiyasiga qo‘ygan talablardan mujassamlangan fazilatlar asosida namoyon bo‘ladi. Ma’lum bir fazilatlarining izchil, turli vaziyatlarda, turli vositalar yordamida

⁷ Эгамбердиева Н. “Ижтимоий педагогика” / Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – Б. 106.

⁸ Мусурманова О. Оила – жамият таянчи: Монография. – Тошкент: “Ёшлар нашриёт уйи”, 2019.

O.Jamoldinovani fikricha, “Aynan uzviylik va uzluksizlik sog‘lom tupmush madaniyatini shakllantirishda maqsadga yo‘naltirilganlik, dasturiylik, tizimlilik, bosqichlilik, davomiylik, natijalilik, pejalashtirilganlik va camapadoplikni vujudga keltirib, mavjud pedagogik japayonning butunligi, uning yaxlitligini, o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlay oladi.

amalga oshirilish orqali takomillashtirilib borayotgani pirovard natijada davlat va jamiyat, oila, mahalla hamda maktablarga namunaviy o‘quvchi, o‘g‘il-qizlarning axloqlarini namoyon etadi. Ushbu nuqtayi nazar orqali milliy davlatchiligimiz, xalqimiz tarixi, hoziri, istiqloli va istiqboli oilada barqaror ijtimoiy munosabatlar talablarini umumlashtirgan holda hozir o‘quvchilarimizda shakllantirilishi dolzarb ahamiyat kasb etayotgan fazilatlar tasnifi tuzildi. Barcha barkamol insoniy fazilatlar kabi mazkur fazilatlar ham ratsional, emotsional va faoliyatga asoslangan tarkibiy qismlar uyg‘unligiga tayanadi. Shu tufayli oila, maktab, mahalla, maktabdan tashqari muassasalarning izchil, amaliy hamkorligi bu fazilatlarni maxsus shakllantirishning barqaror surat va sifatini ta‘minlaydi”⁹.

O.Jamoldinovani fikricha, “Aynan uzviylik va uzluksizlik sog‘lom tupmush madaniyatini shakllantirishda maqsadga yo‘naltirilganlik, dasturiylik, tizimlilik, bosqichlilik, davomiylik, natijalilik, pejalashtirilganlik va camapadoplikni vujudga keltirib, mavjud pedagogik japayonning butunligi, uning yaxlitligini, o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlay oladi. Oilaviy munosabatlarda sog‘lom barqaror muhitda ta‘lim jarayonidagi uzviylik va uzluksizlikni ta‘minlab bermasdan turib, hech bir pedagogik maqsadni amalga oshirib bo‘lmaydi”¹⁰.

F.Abdurahmonovanning fikricha, jamiyatning asosiy ijtimoiy muhiti oila hisoblanib, manashu barqaror muhitdagi barcha munosabatlar, qadriyatlar va an‘analar muayyan darajada oilaga borib taqaladi. Oila va oilalardagi munosabatlar yangi insonni voyaga yetkazadigan muqaddas qo‘rg‘on bo‘lgani uchun jamiyatdagi ma‘naviy-mafkuraviy muhitning sog‘lomligida muhim ahamiyatli o‘rin tutadi. Chunki oila jamiyat negizi bo‘lib, ko‘p asrlik mustahkam ma‘naviy tayanchga ega. Milliy mafkuramizga xos bo‘lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi¹¹.

S.Yo‘ldoshevaning nazariyasiga ko‘ra, “Hozirda sog‘lom jamiyat ya‘ni sog‘lom muhit, sog‘lom oila, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, keng qamrovli pedagogik muhitni shakllantirishga butun jamoatchilik va davlatimiz katta e‘tibor qaratmoqda”¹².

⁹ Куронов М. Миллий тарбия: Монография. – Т.: 2004. – Б. 89.

¹⁰ Жамолдинова О. Ёшлар соғлом турмуш маданиятини шакллантиришда узвийлик ва узлуksизлик / Монография. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2011. – 193 б.

¹¹ Абдурахмонова Ф.Ю., Юсупова Н. Oilalarda ma‘naviy-axlokiy kadriyatlarни mustahkamlashning huqukiy va diniy tamoyillari. – Toshkent: “Ilm-zif-zakovat” nashriyati, 2020.

¹² Йўлдошева С. Ўзбекистонда соғлом авлодни ма‘navий тарбиялашнинг ижтимоий-педагогик асослари (Оила, давлат ва нодавлат ташкилотлари мисолида). Пед. фан. номз. ... дисс. – Toshkent, 2001.

X.Norqulov oila baxti nimalarga bog'liqligi o'rganganida, birinchi o'rinda xotinning oqilligi-yu, ernaing sodiqligiga degan milliy qadriyatlarni ko'rsatib, ikkinchi o'rinda esa er-xotining bir-birini tushunishi yuzasidan qadriyatlarga to'xtalib o'tgan. Bu ikki qadriyatlar ham bo'lajak ota-onalar ongida oilaviy bax-saodat tushunchasining birinchi o'rinda insoniy fazilatlar va munosabatlarning yaxshiligiga bog'liqligini izohlangan. Bu esa o'z-o'zidan oilaviy barqaror munosabatlarning zamiridagi milliy qadriyatlarni qanchalik to'g'ri ekanligini ko'rsatib beradi¹³.

F.Akramovaning fikricha, oilada tarbiyalanuvchida axloqiy hislatlarning tarkib topshishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va uning atrofidagi kishilarning oilaviy munosabatlari g'oyat katta ahamiyatga ega¹⁴.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 63-moddasiga binoan "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega", deb qayd etilgan. Konstitutsiyaning mazkur normasi asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Oila" kodeksining 2-moddasi talabiga ko'ra, "Oilaviy munosabatlarda ayol va erkak teng huquqli bo'lib, oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustunligi tamoyillari asosida" amalga oshiriladi.

Shu o'rinda "Oila" yuridik atamasini tahlil qilib oila tushunchasini ifodalashga to'g'ri keladi. Chunki "Oila" kodeksining 5-moddasida "Oila to'g'risida"gi qonun hujjatlari nikoh tuzish, nikohni tugatilishi(tugashi) va uni haqiqiy emas deb topish shartlari va tartibini belgilaydi, oila a'zolari: er-xotin, ota-ona va bolalar (farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinganlar) o'rtasidagi, oila to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va doirada esa qarindoshlar hamda o'zga shaxslar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy oilaviy munosabatlarni tartibga soladi, shuningdek ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga olish shakl va qoidalarini, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartibini belgilaydi", deb ta'kidlangan¹⁵.

F.Akramovaning fikricha, oilada tarbiyalanuvchida axloqiy hislatlarning tarkib topshishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va uning atrofidagi kishilarning oilaviy munosabatlari g'oyat katta ahamiyatga ega".

¹³ Норқулов Х. Ота-оналарнинг ғоявий-тарбиявий билимларини оширишнинг ижтимоий-педагогик асослари. Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007.

¹⁴ Акрамова Ф. "Оила энциклопедияси", 2019. – Б. 111.

¹⁵ "Хотин-кизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш – мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг муҳим омили" мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами (2019 йил 26 февраль). – Т.: ТДИУ, 2019. – Б. 46.

***O'zbek oilasi
ijtimoiy-psixologik
xususiyatlarini
o'rganishda
muhim o'rin
egallaydigan
tadqiqotlardan biri
N.A.Sog'inovning
"O'zbek oilalarida
nikohdan
qoniqqanlikning
ijtimoiy-psixologik
xususiyatlari"
deb nomlangan
nomzodlik
dissertatsiyasidir.***

M.Salayevaning fikricha, "Oila va oilaviy munosabatlar, ayniqsa, ota-ona va farzanlar o'zaro aloqalari jamiyat yuzaga kelgan ilk davrlardan buyon eng muhim muammolardan biri bo'lib kelgan. Jamiyat rivojlangani sari bu muammoning ahamiyati yanada ortib boraveradi. Chunki insoniyat tomonidan erishilgan yutuqlar aynan oila muhitida, ota-ona va farzandlar munosabatlari tizimida, boshqa har qanday ijtimoiy institutlar orasidagi uzviylik sifatida olib qaralganda ko'proq darajada o'zlashtiriladi va an'ana, ma'naviy meros tarzida avloddan avlodga o'tadi. Shunday ekan, u yoki bu jamiyat, xalq va millatning istiqboli ko'p jihatdan shu munosabatlarning holatiga bog'liq. Buning uchun esa oiladagi ichki muhitning har tomonlama sog'lom, ma'naviy mustahkamlash bo'lishiga erishish lozim"¹⁶.

O'zbek oilalarida er-xotin munosabatlari ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganilgan dastlabki tadqiqotlardan biri Y.A.Yakubov tomonidan amalga oshirilgan¹⁷. Bu tadqiqotda nikohlari mustahkamligiga ko'ra yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan oilalardagi er-xotinlar guruhi hamda ajralish niyatida sudga ariza bergan juftliklardan iborat guruhlar tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan va bu ikki guruh xususiyatlarini keskin farqlab turuvchi qator ko'rsatkichlar aniqlangan.

O'zbek oilasi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishda muhim o'rin egallaydigan tadqiqotlardan biri N.A.Sog'inovning "O'zbek oilalarida nikohdan qoniqqanlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" deb nomlangan nomzodlik dissertatsiyasidir¹⁸.

Bu tadqiqot ish o'zbek oilalarida er-xotinlik munosabatlarining etnopsixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda shaharlik va qishloqlik birinchi bor turmush qurayotgan yosh kelin-kuyovlar, 1 yildan 10 yilgacha turmush stajiga ega bo'lgan muvaffaqiyatli hamda ajralishayotgan qishloqlik va shaharlik er-xotinlar juftliklari o'rganilgan. O'zbek oilasida nikohdan qoniqqanlik turmush o'rtoqlarning ota-onalari va yaqin qarindoshlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlariga oila barqarorligi juda bog'liq ekanligi alohida ko'rsatib o'tilgan.

Professor G.B.Shoumarov ilmiy izlanishlarida oila va oilaviy qadriyatlar, oilaviy munosabatlardagi psixologik muhitning bola xulq-

¹⁶ Салаева М.С. "Ўзбек оилаларида ота-она ва фарзандлар ўзаро муносабатларининг ижтимоий-психологик хусусиятлари". Автореф. Дисс. ... психол. фан.номз. – Тошкент, 2005. – Б. 3.

¹⁷ Якубов Ю.А. О социально-психологических факторах стабильности семьи // Общественные науки в Узбекистане. – 2016. № 11. – С. 16-20.

¹⁸ Софинов Н.А. Социально-психологические особенности удовлетворенности браком в узбекской семье. Автореф. Дис. ...канд. психол. наук. – Киев, 1990. – 20 с.

atvoriga ta'siri masalasi batafsil yoritiladi. Olimning ta'kidlashicha, oiladagi nosog'lom psixologik muhit nafaqat er-xotin o'rtasidagi nizolarni, balki bolalar ruhiyatidagi, xulq-atvoridagi o'zgarishlarni ham keltirib chiqaradi. Oilada ota-onalarning bolalar faoliyatini nazorat qilmasliklari hamda ularni ijtimoiy foydali faoliyatga yo'naltirmasliklari, bolalarda xulq og'ishining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, oilaviy tarbiyaning ta'sirchanlik roli, ota-onaning shaxs sifatida ibrat ko'rsata olmasligi, ularning noaxloqiy xulq-atvoriga ega bo'lishlari ham o'smirlarda xulq og'ishining kelib chiqishiga olib keladi¹⁹.

R.Sh.Bozorova "Oilada mehrni umuminsoniy qadriyatlar asosida singdirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari" nomli tadqiqot ishida oilalarda farzandlarda mehrni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, xalqimizning boy moddiy-ma'naviy merosi, zamonaviy dunyoviy bilimlarni chuqur egallash orqali shakllantirish, har bir yoshning aqliy salohiyatini va ijodiy qobiliyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish masalalari o'rganiladi hamda avlodlarga ajdodlarni qadriyatlarini singdirishda oila muhim o'rin tutishi haqida to'xtalib o'tiladi²⁰.

Oilada jamiyatning mikrotuzilmasi sifatida unda sodir bo'layotgan barcha jarayonlar ta'sirida bo'lib, uning rivojlanishi ko'p jihatdan jamiyatning mazmuniga bog'liq. Ijtimoiy hayotning dinamikasi doimiy ravishda oila hayotiga yangi xususiyatlarni kiritib boradi. Jamiyatning yangi ehtiyojlariga muvofiq oilaning tuzilishi, uning vazifalari, oila a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning tabiati, tashqi dunyo bilan munosabatlari o'zgarib bormoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Oilaviy ijtimoiy munosabatlarni turli ijtimoiy-psixologik, pedagogik omillar ta'siri xususiyatlarini aks ettiruvchi o'ziga xos indikator sifatida o'rganish zamonaviy oila psixologiya hamda pedagogikasining alohida yo'nalishi sifatida ajratilishi mumkin. Oila a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy barqaror munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-psixologik hamda pedagogik omillarni o'rganishda ularni shartli ravishda uch guruhga: oila a'zolarining guruhiiy mansubligi, ijtimoiy-psixologik tipologiyasi hamda oilaning obyektiv-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq omillar guruhlarini ajratish o'rinli.

Oilada jamiyatning mikrotuzilmasi sifatida unda sodir bo'layotgan barcha jarayonlar ta'sirida bo'lib, uning rivojlanishi ko'p jihatdan jamiyatning mazmuniga bog'liq.

¹⁹ Шоумаров Ф.Б. Оила психологияси. – Т.: “Шарк”, 2008. – 296 б.

²⁰ Бозорова Р.Ш. Oilada mehrni umuminsoniy qadriyatlar asosida singdirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. Fals. fan. fals. dok. (PhD) ... дис. автореф. – Бухоро, 2022. – 20 с.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *Нажмидинова К.У. Оила тарбиясида миллий ва умуминсоний ахлоқий маданиятнинг ўрни.* – Т.: “Адолат”, 2016. – 224 б.
2. *Oila huquqi // Darslik. Mualliflar jamoasi. O.I.Oqyulovning umumiy tahriri ostida.* – Т.: TDYU nashriyoti, 2016.
3. *Ўзбекистон Республикаси Оила Кодекси.* – Тошкент: “Адолат” миллий ҳуқуқий маркази, 2021.
4. *Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика / Дарслик.* – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – Б. 106.
5. *Мусурманова О. Оила – жамият таянчи: Монография.* – Тошкент: “Ёшлар нашриёт уйи”, 2019.
6. *Қуронов М. Миллий тарбия: Монография.* – Т.: 2004. – Б. 89.
7. *Жамолдинова О. Ёшлар соғлом турмуш маданиятини шакллантиришда узвийлик ва узлуксизлик / Монография.* – Т.: “Янги аср авлоди”, 2011. – 193 б.
8. *Абдурахмонова Ф.Ю., Юсупова Н. Оилаларда маънавий-ахлоқий қадриятларни мустаҳкамлашнинг ҳуқуқий ва диний тамойиллари.* – Тошкент: “Илм-зиё-заковат” нашриёти, 2020.
9. *Йўлдошева С. Ўзбекистонда соғлом авлодни маънавий тарбиялашнинг ижтимоий-педагогик асослари (Оила, давлат ва нодавлат ташкилотлари мисолида). Пед. фан. номз. ... дисс.* – Тошкент, 2001.
10. *Норқулов Х. Ота-оналарнинг гоёвий-тарбиявий билимларини оширишнинг ижтимоий-педагогик асослари. Пед. фан. номз. ... дисс.* – Тошкент, 2007.
11. *Акрамова Ф. Оила энциклопедияси, 2019.* – Б. 111.
12. *“Хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш – мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг муҳим омили” мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами (2019 йил 26 февраль).* – Т.: ТДИУ, 2019. – Б. 46.
13. *Салаева М.С. Ўзбек оилаларида ота-она ва фарзандлар ўзаро муносабатларининг ижтимоий-психологик хусусиятлари. Автореф. Дисс. ... психол. фан. номз.* – Тошкент, 2005. – Б. 3.
14. *Якубов Ю.А. О социально-психологических факторах стабильности семьи // Общественные науки в Узбекистане.* – 2016. № 11. – С. 16-20.
15. *Согинов Н.А. Социально-психологические особенности удовлетворенности браком в узбекской семье. Автореф. Дис. ... канд. психол. наук.* – Киев, 1990. – 20 с.
16. *Шоумаров Ф.Б. Оила психологияси.* – Т.: “Шарқ”, 2008. – 296 б.
17. *Бозорова Р.Ш. Оилада меҳрни умуминсоний қадриятлар асосида сингдиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. Фалс. фан. фалс. док. (PhD) ... дис. автореф.* – Бухоро, 2022. – 20 с.